

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

Tong yulduzi

2013-yil 13-may
N:19 (66924)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

SARMISHSOY MO'JIZASI

...Olis manzillarni
ko'zlagan tuyalar
karvoni qo'ng'irog'ining
ovoziidan chor-atrofdagi
g'ala-g'ovur bosildi.

Chanqovuz va
sibizg'aning mayin ovozi
tevarakka taralib, qoyatoshlarda aks sado berdi.

Davomi 2-betda

UCH O'RIN HAM BIZNIKI!

Yaqinda «Xushxabarning qanoti bor» degan iboraning to'g'rili giga yana bir bor amin bo'ldik. R. Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabining to'rt nafar o'quvchisi Italiyaning Rimini shahrida bo'lib o'tgan «Con mano prendere il sole!» («Qo'lingni quyoshga cho'z!») nomli xalqaro festival g'oliblariga aylanishgani haqidagi quvonchli xabarni eshitib, O'zbekistonimiz dovrug'ini dunyoga taratgan yosh iqtidor egalari bilan yaqindan tanishish maqsadida musiqa maktabi sari otlandik.

Davomi 2-betda



Kuy-navolar yangrab turgan binoga kirar ekanimiz, cholg'u sozlarini ko'targan o'g'il-qizlar qo'llarini ko'ksilariga qo'yib. «Assalomu alaykum», deya iliq qarsilri olishdi. Maqsadimizni bilgach, g'olib o'quvchilar ustoz Anvar aka HOJINAZAROVga ro'para qilishdi. Ustozning ko'zlaridagi quvonchni ko'rib, to'qinlanib ketdik. Quvonimay bo'ladimi axir, shogirdlaridan bir emas, uch nafari Yevropadan g'olib bo'lib qaytdi.

Fursatdan foydalaniib, 1-o'rın sohibi bo'lgan
Abduhakim SAIDOV ni suhbatga chorladik.

— Men 11 yoshimdan afg'on rubobi, fortepiano chalaman. Kechagina Italiya safaridan olamjahon taassurotlar bilan qaytdik. 12 davlatdan kelgan 85 nafar ishtirokchi orasida musiqa cholg'ulari yo'naliishi bo'yicha bitta 1-o'rın O'zbekistonga berildi. Ijro paytida bizlarga ustozimiz Surayyo TILLAXO'JAYEVA jo'mavozlik qildilar. G'oliblar e'lom qilingan paytdagi holatimni so'z bilan ifodalay olmayman...

3-o'rın sohiblari bo'lgan Islombok NURIDDINOV ushbu maskanning 6-«B» sinfiga, vokalist Ixtiyor VOHIDOV esa 9-«V» sinfiga tahsil olishar ekan.

Hay'at a'zolari ularning betakror ijolarini yugori baholab, kelgusi yili Ispaniyada o'tkaziladigan musiqa festivaliga yo'llanma taqdirm etishdi.

Ota-onalari, ustozlari, do'stlari, qo'yingchi, xalqimiz ishonchini oqlagan iqtidorli yoshlariimiz bundanda ko'payaversin.

O'z muxbirimiz

YOSH IJODKORLAR TANLOVI

Buxoro viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazida Xalq ta'limi vazirligi va «Barkamol avlod» respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi tomonidan «Barkamol avlod» bolalar markazlari to'garak a'zolari o'tasida o'tkaziladigan «Yosh ijodkor» tanlovingi viloyat bosqichi yakunlandi.

Mazkur tanlov bolalar va o'smirlarning Vatanga, tabiatga, san'atga bo'lgan mehrini yanada oshirish, noyob qobiliyat egalarini izlash, bo'sh vaqtini mazmuni o'tkazishni ta'minlash, iqtidorini munosib baholash, aniq bir kasbga yo'naltirish, ma'naviyatini boyitish, arxitektura, san'at va dizayn sohasidagi bilimlarni mustahkamlash, iqtidorli o'quvchilarning xalqaro miyosdag'i festival va tanlovlarda ishtirok etishiga imkon yaratish maqsadida o'tkazildi.

Viloyatdagi 13 ta shahar va tumanlardan ishtirok etgan 65 nafar to'garak a'zolari besh yo'naliish bo'yicha o'z iqtidorlarini namoyish etdilar. Natijalarga ko'ra «Liboslar dizayni» yo'naliishi bo'yicha Shofirkon tuman «Barkamol avlod» bolalar markazi to'garak a'zosi Mohichehra Rasulova, «Landshaft dizayni» yo'naliishi bo'yicha Buxoro viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazi to'garak a'zosi Zarnigor Boqiyeva, «Foto dizayn» yo'naliishi bo'yicha Buxoro tuman «Barkamol avlod» bolalar markazi to'garak a'zosi Ixtiyor Xudoyorov, «Yosh arxitektor» yo'naliishi bo'yicha Qorovulbozor tuman «Barkamol avlod» bolalar markazi to'garak a'zosi Madina Hoshimova, «Yosh musavvir» yo'naliishi bo'yicha Shofirkon tuman «Barkamol avlod» bolalar markazi to'garak a'zosi Maftuna Isroilova faxrli I o'rinni egallab, Respublika bosqichiga yo'llanma olishdi. G'olib va sovrindorlarga viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi va viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazining «Faxriy yorliq»lari va esdalik sovg'alari topshirildi.

Guljahan KOZIMOVA,
viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazi direktori o'rinnbosari

SARMISHSOY MO'JIZASI

Hunarmandlar, kosib-a kandakorlar ning og'ir yuklarini o'rkachlariga ortmoqlagan tuyalar horg'in qadam tashlab, Sarmishsoy darasiga kirib keldi...

Bolajonlar, gap nima haqida ekanligini darhol fahmlagardisiz? Topdingiz, gap yaqinda Navoiy viloyatidagi Sarmishsoy darasida bo'lib o'tgan «Asrlar sadosi» an'anaviy san'at festivali haqida boryapti.



«O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi hamda YUNESKONING O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida o'tkazilgan ushbu festivalda yurtimizning turli viloyatlaridan kelgan usta-yu hunarmandlar, milliy folklor dastalari o'zlarining bor mahorat-u san'atlari namoyish etib, yig'ilganlar olqishiga sazovor bo'lishdi.

mehmonlar, olimlar, tadqiqotchilar azalii an'analarimiz, milliy urf-odatlarimizni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlardan bahramand bo'lishdi.

«Asrlar sadosi»ning dovrug'i o'zligimiz, milliy an'analarimiz, qo'yingchi, yurtimiz dovrug'i bilan uyg'unlashib, dunyoga taraldi.

LAYLO tayyorladi

Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 66-umumta'lim maktabida «Orasta qizlar» to'garagi faoliyatida juda yaxshi yo'lg'a qo'yilgan.

Qizlar o'tasida turli mavzularda tadbirlar o'tkazib turiladi. Jumladan, 5-9-sinf qizlari o'tasida «Xalq hunarmandchiligi - milliy merosimiz» mavzusida katta ko'rgazma tashkil etildi. Unda yuqori sindif qizlari o'z qo'llari bilan yasagan buyumlari, to'qigan kiyimlari, tikkan liboslarini namoyish etishdi. Maktab hovlisi ko'rgazmalar müzeygä aylangandek edi, go'yo. Mehnat ta'limi fani o'qituvchisi Mahfuza Abdukarimova tashkillashtirgan mazkur ko'rgazmaga maktab faollar zalida 8-sinf qizlari o'tasida o'tgan «Kasbi» —

faxrim» nomli tadbir ulanib ketdi. Tadbir ishtirokchilari o'zlarini turli xil kasb egalari timsolidan tanishtirib, bilimlarni namoyish etdilar. Ushbu tadbirni o'tkazishdan maqsad, o'quvchi-qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash, milliy xalq hunarmandchiligi ma'naviy merosimiz ekanligini ular ongiga singdirib borishdan iborat edi. Qiz bolaning kasbi uning baxti ekanligini hayotiy misollar orqali tushuntirish, milliy matolari-mizdan tikilgan zamonaiviy ko'rinishdagi liboslarni tengdoshlariga namoyish etishdan iborat edi. Tadbir so'ngida maktab rahbari hamda mehmonlar ko'zlangan maqsadga ma'lum ma'noda erishilganini alohida ta'kidladilar.

QIZLAR GULSHANI



Muzaffar AHMEDOV

Zulfiya mukofoti sohibalari

Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining
bu yilgi sohibalari orasida
Saidabonu ham bor.

Oltinko'l tumanidagi 1-umumta'lim maktabini
muvaffaqiyatli tamomlab, hozirda Oltinko'l
agroqitishodiyot kollejining 2-bosqichida tahlil
olayotgan bu tengdoshimiz bolaligidan

SAIDABONUNING YUTUGI

adabiyotga alohida mehr qo'ygani bois ko'p kitob
o'qidi, ulardan ilhom olib, she'rlar yozadi. Xorijiy
tillarga qiziqishi bois nemis va ingliz tillarini puxta
o'rganib, hozirda shu tillarda ham ijod qilmogda.
Kitobxonlik Saidabonuga ko'plab yutuqlar
keltirdi. 2010-yilda «Eng faol kitobxon» tanlovida
respublika qolibligini qo'lg'a kiritdi. 2011-yilda
«Majnuntol» nomli ilk she'reiy to'plami nashr
etildi. 2012-yil Markaziy Osiyodagi «Friedrich
Ebert» fondi vakolatxonasi tomonidan
«Mustahkam oila yili»ga bag'ishlanib o'tkazilgan
seminarda vakolatxona rahbari Per Teshendorf
bilan nemis tilida erkin suhabat olib bordi. Per
Teshendorf Saidabonudagi chet tillarini
o'rganishga bo'lgan qiziqishni ko'rib: «Men
bunday iqtidorli qizaloqning kelajagi porloq
bo'lishiga ishonaman», deya fikr bildirdi hamda
Fo'ndning tashakkurnomasi bilan taqdirladi.
Bundan ruhlangan Saidabuning chet tillarini



o'rganishga bo'lgan
ishtiyogi yanada jo'sh urdi
va 2013-yil ingliz tilida
o'quvchilarini darsdan
tashqari mashg'ulotlarda
foydalanishlari uchun
«Happy English» nomli
o'quv qo'llanmasi hamda
akademik litsey, kasb-

Bahor bayramlarga boy fasl,
desam adashmayman. Shu
kunlarda yana bir katta
shodiyonaning guvohi bo'ldik.

BIZGA
MAKTUB
VO'LLABSIZ...

SHAHRIMIZDA YANA BAYRAM

Bu galgi «Asrlar sadosi» festivalining viloyatimizdag
Sarmishsoy darasida bo'lib o'tishi qalbimizda faxr
tuyg'usini uyg'otdi. Festival mehmonlarining yurtimizdan
olgan taassurotlarini, festival haqidagi iliq fikrlarini eshitib,
qadrond go'shamizga bo'lgan mehrimiz yanada ortdi.

Madina UBAYDOVA,
Navoiy viloyati, Uchquduq shahridagi
7-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

ANHOR

- Suvlari zilol anhor,
Qirg'og'ingdan toshasan.
Sho'x, quvnoq qo'shiq kuylab,
Bilmam, qayga shoshasan??!

- Do'stim, mendan ranjima,
Yumushlarim xo'p bisyor.
O't-o'lan, dov-daraxtlar,
Yo'llarimga intizor.

«Meni sof saqlang!» degan,
Tinglang arz-u nolamni.
Shunda bor mehrim berib,
Yashnataman olamni!

Go'zal RO'ZIQULOVA,
Samarkand shahridagi
1-maktabning 6-«V» sinf o'quvchisi

KUCH – BIRLIKDA!

Biz 5-«B» sinf o'quvchilari yaxshi o'qish uchun
astoydil harakat qilyapmiz. Sinf rahbarimiz Maftunaxon
Egamberdiyeva boshchiligidagi ko'pgina yutuqlarga
erishdik. Masalan, yaqinda matematika fanidan
o'tkazilgan bellashuvda yaxshi natija ko'rsatdik.
Boshqa fan oyliklarida ham faol ishtirot etib, «Faxriy
yorliq» va esdalik sovg'alarini ham qo'lg'a kiritdik.
Yaqinda bo'lib o'tgan «Gullar bayrami»da esa
tayyorlagan ko'rgazmalarimiz bilan qatnashib, 1-
o'ringa sazovor bo'ldik. Bunday yutuqlarimiz evaziga
ustozimiz Maftuna opa bizni Namangan shahridagi
«O'lakashunoslik» muzeyiga olib bordilar. U yerda
yurtimiz, shahrimiz, tumanimiz tarixiga oid ko'pgina
ma'lumotlarga ega bo'ldik. «Kuch – birlikda!» deb
bejizga aytildagan. Shunday ahil jamoani
shakllantirgan sind rahbarimizga, bilim berayotgan
barcha ustozlarimizga samimiy minnatdorchiligidimizni
bildiramiz.

Iroda O'RINBOYEVA,
Namangan viloyati,
Kosonsoy tumanidagi
32-umumta'lim
makiabi o'quvchisi



YOZUVCHINING YANGI TUHFASI

Maktabimizda kitobsevar o'quvchilar juda
ko'p. Shuning uchun ham yaqinda
kutubxonachimiz Surayyo opa Karimova
tashabbusi bilan o'tkazilgan O'zbekiston xalq
yozuvchisi Anvar Obidjonning yangi
nashrdan chiqqan «O'q o'tmas bolakay
yoxud oltin yurak» nomli asari
taqdimoti haqiqiy bayramga
aylanib ketdi. Bu asarni
maktabimizning deyarli barcha
o'quvchilar qiziqib o'qib chiqishdi.
Tadbir avvalida o'quvchilar mevali
adibimizning hayoti va ijodiy faoliyatini
haqida to'liq ma'lumot berdilar. So'ng, ushbu kitobdan
joy olgan hikoyalar asosida sahna ko'rinishlari



namoyish etib, tomoshabinlar
olqishiga sazovor bo'ldilar.
Maktab o'quvchilar ijjosidagi
betakror raqs, dlrabo kuy va
qo'shiqlar kechaga o'zgacha
shukuh bag'ishladи.

Sevimli yozuvchi va
shoirimizdan yana yangi asarlar
kutib qolamiz.

Sarvinoz MANSUROVA,
Farg'onan viloyati, O'zbekiston tumani,
Yaypan shahridagi 10-maktabning
8-sinf o'quvchisi

O'ZIMIZNING MEVALAR ZO'R!

Bir kuni sinfga kirsam, sinfdoshlarim Maratning atrofini o'rat olib,
gaplarini zavq bilan eshitishyapti.

– Kecha mehmonga borgandik. Dasturxonga
chet eldan keltirilgan sarxil mevalardan
qo'yishibdi, – deya maqtanardi u. Unga boshqa
bolalar ham qo'shilishi. Biri xorijning bu mevasi
zo'r desa, boshqasi mana bunisi zo'r,
deya tortisha ketishdi.

Shunda o'ylanib qoldim:
nahotki odamlar chet
davlatdan keltirilgan
mevalarga shunchalik
o'ch bo'lisha? Yurtimizda
yetishtirilgan mevalar
chi? Axir chet eldan
kelgan sayyoqlar
shirindan-shakar



mevalarimizni, taomlarimizni tillaridan bol toimb
maqtashadi-ku. Serquyosh o'lakimizda
yetishtirilayotgan sarxil mevalarning qoqlari,
konservalangan poliz ekinlarining ko'plab chet
davlatlariga eksport qilinishi bugun hech kimga
sir emas. Bu fkrlarim bilan chet ellarda
yetishtirilgan mevalarni kamsitmochchi
emasman. Ammo, menimcha,
o'zimizning mevalarga teng
keladigani yo'q!

Avazbek SHERMATOV,
poytaxtimizdag
114-maktabning
8-«D» sinf o'quvchisi

Safar BARNOYEV



Atoqli shoirimiz Safar Barnoyev hayot bo'lganida, bu yil yetmish besh bahorni qarshi olgan bo'ldi. XX asr bolalar abadiyotida o'zo'mi, o'z ovozi bo'lgan Safar Barnoyev qator yillar mobaynida bolalar nashtarida xizmat qildi.

BU OLAMDA YORQIN IZI BOR

Yosh avlodning beg'ubor dunyosi, murg'ak qalbaridan joy olish baxti har kimga ham nasib etavermaydi.

Bolalar shoiri yoki yozuvchisi bo'lisl ijodkordan juda katta mehnat, mahorat talab etishini hammamiz ham bilavermaymiz. Zero, bu ijodkorlarning qalbi ham ularnikidek pok, beg'ubor bo'lishi lozim. Yozganlari ona allasi kabi o'quchchi qalbini rom etmasa, bola rohatlanmaydi.

Bu fazilatlarning barini o'zida jamlagan Safar Barnoyev «Dadamning qo'llari», «Sog'inch», «Soldat qaytgan kun», «Kichkina Xo'ja Nasriddin», «Tog'lardaman», «Birinchi tabassum», «Yoshlik sururi», «Yulduzxon va Bahromjon», «Sayroqi bedanalar», «Dadam haqida qo'shiq», «Oq laylaklar», «Mukofot» kabi kitoblari bilan o'quvchilar qalbidan mustahkam joy olgan. Ayni kunlarda ustozni xotirlab, u kishining bolalarbop o'ynoqi she'rлaridan hukmingizga havola etgimiz keldi.

AXTAMQULI



Ko'p qavatlari yuda yashar, Olim, Halim, Nor, Bashar. Ularning qilgan ishin, Ibrat qilsak yarashar.

Birga borar maktabiga, Birga qaytar maktabdan. Hamma fanlar talabiga, Javob berar daf'atan.

Neki bo'lsa ekdi ular Oz, ko'p emas, ellikta. Qizib ketdi birdan kunlar, Qarang-chi, endilikda.

Bahor edi. To'rttalasi Bir qarorga kelishdi. Ko'plar havas qilishdi, Ba'zilar-chi, kulishdi.

Ko'p qavatlari uy ortida, Yotar edi bo'shliq yer. Qat'iy qaror qilishdi-da: «To'rt azamat keldik», der.

Bo'shliq yerni darsdan keyin, Chopishdi, sug'orishdi. Tuproq bo'ldi unday mayin... To'g'ri, jinday horishdi.

So'ng ellikta tok ekishdi, Ekishdi ellikta nok. Ellik chinor o'tqazishdi, To'rt azamat, to'rt o'rtoq.

To'rt og'ayni bog' yaratdi, Yashnab ketdi bo'shliq yer. Kimki o'tsa uy ortidan, «Bog'bon» larga rahmat der.

Hu, o'shanda kulgalar-chi, Tilini tishlab qoldi. «Barkamollik bog'i» deya, Jajji bog'cha nom oldi.

Bu kun ekkan nihollarin, Havas qiling bo'yiga. Ajib sovg'a bo'ldi ular, O'zbekiston to'yiga.

To'rt qavatlari yuda yashar, Olim, Halim, Nor, Bashar.

1996-yil

BARKAMOLLIK BOG'1

INSON – ULUG'

qo'shiqlar kuylashdi. San'atsevar o'quvchilar tomonidan ijro etilgan «Sho'x bolalar», «Buxorocha», «Xoramcha», «Tovus» kabi raqslar barchada katta taassurot qoldirdi.

– Bunday tadbirlar yosh avlod ongida tinchlikning qadriga yetish, Mustaqillikning buyuk ne'mat ekanligini anglash kabi tuyg'ularni shakllantirishga yordam beradi, – deydi maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Sayyora Do'smatova.

Tashkilotchilar Go'zal va Shahnoza



– Ushbu tadbirni o'tkazishdan maqsadimiz, o'quvchilarning ongi va qalbiga insoniylig, xotira va qadrlashdek kishini egzu ishlarga undovchi, yuragida mehr-muhabbat nihollarini undiruvchi tushunchalarni singdirishdir, – deydi maktab direktori Yorqinoy Mamatova.

Tadbir davomida o'quvchilar tinchlik, vatanparvarlik, obodlik haqida o'zbek, ingliz, rus tillarida she'rлar o'qishdi,

Toshmuhammedovalar tadbirning qiziqarli va mazmunli o'tishi uchun astoyid harakat qilganlarini unda ishtirot etgan urush va mehnat faxriylari, ustoz-u o'quvchilar alohida e'tirof etishdi.

Inson – aziz, xotira – muqaddas. Shunday ekan, yosh avlod qalbida ajdodlarga hurmat, ehtirom tuyg'ularini uyg'otish ta'lim-tarbiyaning eng asosiy vazifasidir.

Vasila PO'LATOVA

BOBOLARNI YOD ETIB...

Y-«B» sinif rahbari Muattar Yakubova 9-may – Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab tadbir o'tkazish niyatida ekanligini aytganida, o'quvchilari birdek quronib ketishdi.

Tadbirga tayyorgarlik ishlari ni o'quvchilar o'sha kundanoq boshlab yuborishdi. Vatan, Istiqlol, tinchlik, obodlik, do'stlik mazulardan she'rлar yod olib, qo'shiqlar, sahna ko'rinishlari tayyorlashdi.

Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 197-maktab kichkintoylari tomonidan tayyorlangan «Ajodolarni yod etib...» deb nomlangan tadbir barchaga manzur bo'ldi.

Tadbir davomida bilimdon, zukko o'g'il-qizlar shuni yaxshi angladilar, bugungi tinch va osoyishta hayotimizning qadriga yetish, yurtimizni yanada obod qilishga hissa qo'shish juda muhim ekan.


OLMOS



ENGLISH LESSON


(Ingliz tili darsi)

Kitobni atashar – a book,
Daftor esa – a notebook,
A ruler bo'ladi chizg'ich,
An esaserdir o'chirg'ich.
Bo'rni ataymiz – a chalk,
Suhbatlashmoq-chi – to talk,
Maktab – a school, ruchka – a pen,
Salqin – cool, o'n soni – ten.
Ustoz atalur – a teacher,
Rasm nomi – a picture.
Buni o'rganish oson,
Darsni deyishar – lesson.



Shahlo NURMUHAMMEDOVA,
Buxoro viloyati, Shofirkon
tumanidagi 20-maktabning
ingliz tili fani o'qituvchisi

RASMDAGI HAYVONLARNI INGLIZ TILIDAGI NOMI BILAN BIRLASHTIRING



GREETINGS

(Salomlashuv so'zlar)



4. When I leave my friends
I say: GOOD BYE
MY FRIEND

5. When I go to bed
I say: Good Night

A POEM

Good morning, good morning,
Good morning to You.
Good morning, good morning,
I am glad to see You.

Risolat ISMOILOVA

OUR PETS

(Nuqtalar o'mriga mos so'zni yozing)

I have got ...cats. They are black ...white. I give... milk. My brother has got a ... It is not ... big. My brother ...to play with his ...at home. Our mother... my brother and me to play in the park. We take ... pets to the park too. My brother ... run fast. His dog likes to run ... him.

Takes two them dog
very dog can our and
likes after

FIND AZIZA'S BAG

(Azizaning sumkasini toping)



There are
three red apples, two bananas, a bar of
chocolate, three pink flowers in
Aziza's bag.

Nigora IKROMOVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
13-maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi

CROSSWORD «20X20»



ENIGA

- Poytaxti Kanberra shahri bo'lgan ingliz tilida so'zlashuvchi davlat.
- O'qituvchi, ustoz.
- Dam olish kuni.
- Poytaxti Ottawa shahri bo'lgan ingliz tilida so'zlashuvchi davlat.
- Angliyadagi kuchli futbol klublaridan biri.
- Sabzavot turi.
- Sanoq son.
- Hech qachon.
- To't fasldan biri.

- Rangi yashil, ko'lmakda yashovchi jonzot.
- Mustaqil, erkin.
- Dangasa, yalqov.
- Do'st, o'rtoq.
- Ichimlik, choy.
- Bahor elchisi bo'lgan qush.
- Pichoq.
- Uzun.
- Yomg'ir.
- Yengil avtomobil.
- Yerning tabiiy yo'doshi.

- Bo'yiga
- Ingliz tili alifbosining 21-harfi.
- Bugunni ertaga nima deymiz?
- Ko'mirning rangi.
- Ho'l meva turi.
- Angliya poytaxti.
- Qachon?
- Yilning oltinchi oy.
- Ingliz tilida so'zlashuvchi Yangi Zelandiya davlatining poytaxti.
- Semiz.
- Qiziqarli.
- Xasta, bemor.

- Kim?
- Ustida.
- Tuman.
- Uy hayvoni.
- 50X50.
- Mag'zi bor meva.
- Sutning rangi.
- Baland, yuqori.
- Nam, ho'l.

Davron AKBAROV,
Farg'onova viloyati, Qo'qon shahridagi
26-maktabning ingliz tili fani
o'qituvchisi

«Tong yulduzi» mamlakatimiz bolalari va o'smirlaridan eng ko'p she'riy maktublar oladigan nashrlardan biri hisoblanadi.

Chunki u yosh ijodkorlarning sevimli gazetasi, chin do'sti, sirdoshi bo'lib kelmoqda.

Sahifalarida chop etilayotgan bolalar shoirlari va yozuvchilarining hayoti, ijodi, joylarda o'tkazilayotgan adabiy kecha va uchrashuvlar haqidagi qiziqarli materiallar she'r yozishga ishtiyogmand o'quvchilarning bu nashrga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirmoqda.

Kezi kelganda, eng sara she'rlarni tanlab, tahrir qilib, ularni rangli suratlari bilan bezatilgan holda o'quvchilar diqqatiga havola etayotgan gazetaning adabiy xodimlari xizmatini alohida e'tirof etsak arzyidi.

Tahririyatga kelgan she'riy maktublar bilan yaqindan tanishib, yurtimizda iqtidorli o'quvchilar ko'pligiga, yosh adabiyot ixlosmandlari pishiq-puxta she'rlar yozish yo'lida tinmay izlanayotganliklariga amin bo'ldik. Quvonarlisi, ular yurakdagি his-tuyg'ularini samimiyl, ravon misralarda bayon etishga harakat qilganlar. Yosh qalamkashlar she'riyat bu xayolga kelgan so'zni, fikri shunchaki qog'ozga tushirish emasligini tobora teranroq anglab borayot-gandeklar...

Samarqand viloyati, Narpay tumani, Navoiy mahallasidan tahririyatga she'rlar yo'llagan 6-sinf o'quvchisi Charos SHOMIRZAYEVAning «Dugonalar» nomli she'ri menga juda manzur bo'ldi. Charosning boshlovchi qalamkash sifatidagi ijodiy yutug'i qalb kechinmalarini sodda, samimiyl satrlarda ifodalab, o'quvchilarni o'zaro ahillik, inoqlikka chorlay oiganadir:

Bir sinfiga hor edi,
Ahil ilki dugona.
Birisin ismi Charos,
Biri esa Durdona.
Orzulari bir jahon,
Ko'ngillari naqshida.
Birga yurishar har on,
Dugonalar yaxshi-da.
Birga dars tayyorlashar,
Birga o'qishar kitob.
Ularning do'stligidan
Quvonar hatto oftob.

Qizlarning do'stligidan hatto ko'kdagi ostochning ham quvonganini dildan his eta oigan Charos Shomirzayevadan kelgusida bundan ham qiziqlari, o'qishli she'rlar kutib qolamiz.

Navoiy viloyati, Karmana tumanidagi 22-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Dildora YARASHEVA o'z mashqlarida bahorning betakror go'zalligini o'ziga xos tarzda tasvirlashga harakat qilgan. Tasvirlari garchi yangi fikr kasb etmagan bo'lsa ham, har holda havaskor qizimizning she'riyatning o'ziga xos qonun-qoidalaridan yaxshigina xabardor ekanini bildiradi:



*Uyquchi maysalar ko'zin ugalab,
Zamindan ohista*

ko'tarmoqda bosh.

*Zarrin nurlarini har yonga tarab,
Tog'larning ortidan*

kulmoqda quyosh...

Dildoraning she'mni to'liq qofiyali yozishga intilishi tahsinga loyiq. Singlimiz ko'proq badiiy kitoblar o'qisa, she'r yozishni tinimsiz mashq qilsa, albatta, o'quvchiga manzur bo'ladigan she'rlar yoza olishiga umid qilsak bo'ladi.

Surxondaryo viloyati, Qiziriq tumanidagi 10-maktab o'quvchisi Madina IBRAGIMOVAning ona mavzusidagi she'ri ham samimiyl mashqlardan bo'lidi.

To'g'ri, ona haqida qalbni «jizil-latadic», bir o'qishda hammani ko'nglidan joy oladigan she'r yozishning o'zi bo'lmaydi. Shunday bo'lsa-da, Madina o'zida jur'at topib, bu mavzuda yaxshigina, ta'sirchan misralarni yozishga erishibdi:

*Osmondag'i oymisiz,
Mehrlarga boymisiz,
Siz dunyoda tengi yo'q,
Mehribonim oyimsiz.*

Mana shunday samimiyl satrlarga yarasha «yarq» etgan badiiy xulosa yoxud fikr bo'lganda bormi, biz shubhasiz bu mashqni to'laligicha o'quvchilar e'tiboriga havola etgan bo'lardik.

Buxoro shahridagi 17-umumta'lim maktabining 5-sinfida tahsil olayotgan Muhabbat NEKOVA o'z maktubiga

ilova sifatida 2011- va 2012-yillarda chop etilgan ikki she'riy to'plamini va o'qituvchisi N.Qodirovaning dil so'zlarini qo'shib jo'natibdi. To'plamlarni katta qiziqish bilan o'qib, quvondik.

Atirgul, atirgulim,

Tabiatga bezaksan.

Bog'imda yagonasan,

Ko'r kamdirsan, go'zalsan.

Sening hidingga

Men bir umr maftun-da.

Go'zaldirsan, o'stiraman

Endi seni kaftimda!

Tahririyatga kelgan she'riy mashqlar bilan tanishar ekanmiz, ijodkor ustozlarimiz ham o'z his-tuyg'ularini badiiy vositalar orqali yetkazishga harakat qilganlardan xursand bo'ldik. To'g'ri, ular biroz tahrirtalab, lekin ohangning quvnoqligi, yangilikka o'ziga xos tarzda intilishning borligi, muhim, o'quvchi ruhiyatiga yaqinligi bilan e'tiborimizni tortdi. Shunday mashqlardan birini Qashqadaryo viloyati, Chiroqlik tumanidagi 34-umumta'lim maktabidan Eshniyoz BURHONOV yo'llagan:

Bulbullah chertib torin,

Kuylar kuy-ko'shiq borin,

Tarar xushbo'y iforin,

Gullarning dudoqlari.

Butun borliq uyg'ondi,

Yomg'ir suylariga qondi,

Gul, barglarga o'randi,

Daraxtlar butoqlari...

Biz bunday iliq fikrlarni Jizzax davlat pedagogika instituti qoshidagi 2-

akademik litseyning 1-bosqich o'quvchisi Go'zaloy MUHIDDINOVA, Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi 33-maktabning 8-sinf o'quvchisi Gulchehraxon ABDUAZIZOVA, Navoiy shahridan Mahfuza PO'LATOVA, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 30-umumta'lim maktabning 9-sinf o'quvchisi Nilufar NU'MONOVA, Surxondaryo viloyati, Uzun tumanidagi O'rol CHORIYEV, Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanidagi 19-maktab xodimi Xolboy SHERDONOVning ijod namunalariga nisbatan ham aytishimiz mumkin. Nomlari yuqorida sanab o'tilgan qalamkashlar mashqni bo'shash-tirmasalar, jiddiy o'qib-izlansalar, kelgusida, albatta, yaxshi she'rlar yoza oladilar, deb o'layman.

Andijon viloyati, Asaka tumanidagi 59-maktabning 6-sinf o'quvchisi Sardorbek MO'MINOV, Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 34-maktabning 9-sinf o'quvchisi Rustam MALIKOV, Samarqand viloyati, Payariq tumanidagi 10-mak-

tabning

8-sinf

o'quvchisi

Fotima SHER-

BO'TAYEVA, Jizzax viloyati,

Forish tumanidagi 7-maktabning 9-sinf o'quvchisi Zulfiya TIRKASHEVA, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi 20-maktabning 6-sinf o'quvchisi A'loxon ABDUBURHONOV, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 41-maktabning 7-sinf o'quvchisi Ra'no ABDU-MALIKOVA, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 63-maktabning 9-sinf o'quvchisi Sojida RAVSHANOVA, Toshkent shahri, Chilonzor tumanidagi Saodat ZULHAYDAROVA, Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi 20-maktabning 7-sinf o'quvchisi Munojot ASLONOVA, Nozanin HAMIDOVA, Buxoro viloyati, Buxoro tumani, Galaosiyo shahridagi 1-maktabning 5-sinf o'quvchisi Niginabonu DAVRONOVA, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qonliko'l tumanidagi 18-maktabning 8-sinf o'quvchisi Turdigul BOBOJONOVA kabi qalamkash uka va singlaringizga, avvalo, ko'proq badiiy asarlar o'qishni, she'riy mashqlar ustida jiddiy ishlashni, yozganlarini birinchи navbatda adaptiyot fani o'qituvchilarini nazardin o'tkazib olishni, ana shundan keyingina tahririyatlarga jo'natishlarini maslahat beramiz. Chunki she'r yozish qonun-qoidalari puxta o'rganmay turib, durust she'rlar yozish mumkin emas.

She'r yozishga ishtiyokmand o'g'il-qizlarga tilagimiz bita: u ham bo'lsa, faqat yaxshi she'rlar yozing. Buning uchun ko'proq kitob mutolaa qiling, hayotni, tabiatni seving va kuzating. Vaqtinzingni behuda o'tkazmang. Ilhom sizni hech qachon tark etmasin.

*Abdurahmon AKBAR,
bolalar shoiri.*

S.FARMONOV chizgan rasm

Vatanimiz sarhadlarini qo'riglash, uni ko'z qorachig' idek asrab-avaylash shu yurtda tug'ilgan har bir o'g'lonning sharaflı burchidir.

«LOCHIN» NING BALAND PARVOZI

Bu kabi muqaddas tuyg'ularni farzandlarimiz qalbiga bolaligidanoq singdirib borish esa har birimizning zimmamiga katta mas'uliyat yukladi.

Kuni kecha Jizzax viloyatida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalar o'quvchilar o'tasida o'tkazilgan Respublika «Shunqorlar» harbiy-sport musobaqaqlari ham ana shu egzu maqsad yo'lida tashkil etildi.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi Kangashi, O'zbekiston Respublikasi Mudofa, Oliy va o'rta maxsus ta'lif, Madaniyat va sport ishlari, Sog'liqni saqlash vazirlarligi, Mudofaaga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti hamkorligida kasb-hunar kollejlari o'quvchilar o'tasida an'anaviy ravishda o'tkazib kelinayotgan mazkur musobaqaning bu galgi bahslari ham qizg'in va murosasiz tarzda kechdi. Tadbirda musobaqaning viloyat bosqichlarida g'olib chiqqan 14 jamoa kross yugurish, mernanlik, saf qo'shig'i, harbiy topografiya kabi shartlar bo'yicha o'zaro bellashishdi. Bo'lg'usi Vatan posbonlarining tezkor harakatlari, barcha shartlarni chaqqonlik bilan bajarayotganliklarini ko'rib, yurtimiz kelajagi ishonchli qo'llarda ekaniga yana bir bor amin bo'ldik.

Musobaqa yakunida barcha shartlar bo'yicha g'olib va sovrindorlar aniqlandi. Unga ko'ra, Samarcand viloyati, Payariq qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslash va servis



kasb-hunar kollejining «Lochin» jamoasi birinchi o'rinn - bosh sovrinini qo'lg'a kiritdi. Jizzax viloyati, Baxmal iqtisodiyot va Surxondaryo viloyati Olimpiya zaxiralari kasb-hunar kollejlari jamoalari keyingi o'rinnlari bo'lib olishdi.

- O'tkazilayotgan bunday harbiy vatanparvarlik sport musobaqaqlari o'sib kelayotgan yosh avlodni yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi, - deydi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Jizzax viloyati bo'limi raisi o'rnbosari Orifjon Shukurov.

Tadbirda qator nominatsiyalar bo'yicha ham g'oliblar aniqlandi. Barcha g'olib va sovrindorlarga kubok, Diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Sa'dullo TURSINOV

«GULZOR» DA YANA BAYRAM

Zangiota tumanining «Sabzavot» mahallasi hududidagi nomi o'ziga mos bo'lgan «Gulzor» kichik mahallasiga ko'pchilik havas qiladi.

So'lim va obod ushbu mahallani mo'jazgina gulzorga qiyoslash mumkin. Odamlarining ahilli, totuvligi, mehr-oqibatini aytmaysizmi? Bayramlar munosabati bilan tashkilashtiriladigan kecha va tadbirlar juda fayzli o'tadi. Bunday tadbirlarda, ayniqsa, bolajonlarning quvonchi cheksiz bo'ladi.

Yaqinda mazkur go'shada mahalla faollari Madina Muqimova, Ahror Qosimxo'jayev tashabbusi bilan «Obod turmush yili»ga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi. Mahallaning nuroniy taxonxonasi izzatda, yoshlar xizmatda bo'ldi. Turli sohalarda salmoqli yutuglari qo'lg'a kiritgan eng faol mahalla yoshlaridan Aziz Muqimov, Xumora va Feruza Saidabrorovanning nomlari faxr va iftixon bilan tilga olinib, ularga «Faxriy yorliq»lar topshirildi. Iqtidorli yoshlarni bunday tadbirlarda rag'batlantirib borish orqali tengdoshlari qalbida ham havas uyg'otib, ulardek bo'lishga intilish

hissi shakllantirib boriladi.

9-10 yoshi bolalar o'tasida boks bo'yicha Osiyo ochiq championatida g'oliblik shohsupasini egallagan Begzod Boltaboyev davraga chorlanganda, atrofni gulduros qar-

saklar, bolajonlarning olqishlari tutib ketdi. Nuridin Boqievga esa «Gulzor»ning eng mehnatkash bolasi», degan nom berildi.

«Turon» yakkarakash federatsiyasi qoshida ochilgan to'garakda ulug' bobomiz Amir Temur davridagi raqs va mashq usullarini o'rganayotgan o'g'il-qizlarning ko'rgazmali chiqishlari kechaga jo'shqinlik, ko'tarinkilik baxsh etdi. Begzod va Nilufar Ahmadjonovalar uchun shu kuni

mahallada nishonlangan tavallud ayyomlari bunday sanalarning eng unutilmasi bo'lib qolsa, ajabmas.

Bir so'z bilan aytganda, «Gulzor»da bolalar va o'smirlarga ko'rsatilayotgan e'tibor ibrat qilsa arzirli. Tadbirda ishtiroy etgan «Sabzavot» mahallasi raisasi Erkinoy Ubaydullayeva hamda maslahatchi Mohira Rahimova ham astoydil havas qilishi. Ular hozirda bizning mahallamizda ham iqtidorli, sportsevar, mehnatsevar bolalar juda ko'pku axir, deya turli to'garaklar

ochish harakatiga tushganlar. Mahallangdan mashhurlar chiqa faxr-ku, axir!

- Biz yoshlarga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibordan behad mammunuz. Bunga javoban puxta bilim olib, til o'rganib, kasb-hunar sirlarini egallab, sport bilan do'stlashib, kelajakda bundan yuqori natijalarga erishishga va'da beramiz! - deyishmoqda «Gulzor»lik o'g'il-qizlar.

Muslimbek YUSUPOV

ULKAN G'ALABALAR POYDEVORI

Samarqand viloyati, Samarqand tumanidagi 2-Bolalar va o'smirlar sport maktabi sport-sevar o'g'il-qizlarning sevimli maskaniga aylangan.



mazkur maktabda badiiy gimnastika bo'yicha ham mashg'ulotlar yo'lga qo'yildi. Ayni paytda qirqa yaqin tarbiyalanuvchi malakali murabbiy Sabina Ahmedova rahbarligida nafis sport turi bilan muntazam shug'ullanmoqda. Sog'gom turmush tarzi, go'zallik, iroda va matonat garovi bo'lgan badiiy gimnastika maktab yoshlari o'tasida tobora ommalashmoqda.

SPORTSEVARLAR MAK TABI

Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumanidagi 6-Bolalar va o'smirlar sport maktabida 904 nafar o'g'il-qiz sportning voleybol, basketbol, qo'l to'pi, mini futbol, sport gimnastikasi, kurash, taekvando, boks, dzyudo, badiiy gimnastika turlari bilan muntazam shug'ullanmoqda.

Yosh sportchilarning mahoratini oshirishda 24 murabbiy tomonidan yuqori saviyada o'tkazilayotgan mashg'ulotlar o'z samarasini berayot.



- Maktabimizda 2012-yilda qurilgan, zamonaviy usulda jihozlangan sport zali sportsevar yoshlar ixtiyorida, - deydi maktab direktori Nizomiddin Umbarqulov. - Bu yerda yaratilgan zamonaviy shart-sharoit, mayjud qulayliklardan o'quvchilarimiz unumli foydalanishmoqda.

Shohruh Rahmatov, Otabek Abdusamatov, Namoz Ibrohimov, Muzaffar Rashidov kabi o'quvchilar mamlakatimizdagи va xalqaro miqyosdagи bellashuvlarda sovrinli o'rinnlari egallab kelishmoqda.

Shoh MUHAMMAD



7

DIQQAT! DIQQAT!

«ONAJONIM TABIAT» INSHOLAR VA RASMLAR KO'RIK-TANLOVI YAKUNLANDI

Jonajon diyorimiz tabiat go'zal, betakror, saxiylikda, bag'rikenglikda betimsol xilqat. Uning musaffoligini asrab-avaylash, kelajak avlodlarga ham sofligicha yetkazishdek ezgu ishlarga hissa qo'shish barchamizning burchimizdir.

Shu ma'noda yurtimiz tabiat, atrof-muhiti, atmosfera, yer va suv resurslarini muhofaza qilish, ekologik holatini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarda o'quvchilarning ham faolligini oshirish, ekologik ta'lif-tarbiyani shakllantirish, yosh avlodning murg'ak qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Badiliy akademiyasi, O'zbekiston Davlat tabiat muzeysi, O'zbekiston ekologik harakati, «Tong yulduzi» Respublika bolalar va o'smirlar gazetasi hamkorligida o'tkazilgan an'anaviy «Onajonim tabiat» insholar va rasmlar ko'rik-tanlovi yakunlandi.

Tanlovga kelgan 120 ta ijodiy ishlar O'zbekiston Respublikasi Badiliy akademiyasi, O'zbekiston ekologik harakati xodimlaridan iborat hakamlar hay'ati tomonidan ko'rib chiqilib, quyidagi o'quvchilar g'olib deb topildi:

INSHOLAR BO'YICHA

G'OLIBLAR RO'YXATI:

Bosh sovrin – Shermuhammad DEHQONOV, Farg'onaviyoti, Marg'ilon shahridagi 1-«Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchisi;

1-o'rinni – Sultonbek ZIYAYEV, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qonliko'l tumanidagi 7-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi;

2-o'rinni – Dilnavoz NAJIMOVA, Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi 26-maktab o'quvchisi;

3-o'rinni – Shahnoza TOSHQULOVA, Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi 1-akademik litsey o'quvchisi.

«Eng yosh ishtirokchi» nominatsiyasi g'olibi – Gulchiroy JABBOROVA, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-maktabning 3-«D» sinf o'quvchisi.

Rag'batlantiruvchi o'rinni – Sarvar YO'LBOYEV, Namangan viloyati, Mingbulqoq tumanidagi 29-maktabning 4-sinf o'quvchisi.

RASMLAR BO'YICHA

Bosh sovrin – Fotima JO'RABOYEVA, Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 109-maktabning 7-sinf o'quvchisi;

1-o'rinni – Zarina NURMATOVA, Samarkand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 68-maktabning 6-«V» sinf o'quvchisi;

2-o'rinni – Mushtari MOHIRJONOVA, Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumanidagi 31-maktabning 7-«V» sinf o'quvchisi;

3-o'rinni – Mahliyo QUISHEVA, Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi 27-maktabning 8-sinf o'quvchisi.

«Eng yosh ishtirokchi» nominatsiyasi g'olibi – Asadbek AHMEDOV, Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi 10-maktabning 1-«B» sinf o'quvchisi.

Rag'batlantiruvchi o'rinni – Hamidullo ABDULLAYEV, Farg'ona viloyati, Besharaq tumanidagi 27-maktabning 6-sinf o'quvchisi.

G'OLIBLARNI QUTLAYMIZ!

G'oliblarni taqdirlash tadbiri 2013-yil 5-iyun kuni soat 15.00 da O'zbekiston ekologik harakati binosida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Bunyodkor shoh ko'chasi, 1-«A» uy.
Qo'shimcha ma'lumot uchun telefonlar: 244-63-08, (+99890) 948-54-95.

O'qing, qiziq!

BANAN

Banan aslida daraxt emas. Balki sayyoramizdagi tez o'suvchi eng katta butalardan biri. Masalan, Yangi Gvineyada o'suvchi yirik bananning bo'yisi 15 metrgacha bo'lib, undan tarqalayotgan hid ko'rshapalaklarni o'ziga jalg'eb etadi. Kunduzi esa gullari hididan qushlar va hasharotlar bahramand bo'lishadi.

KOKOS PALMALAR

Kokos palmasi tropik dengizlar qirg'oqlarida o'sadi. Taxminan 100 yil o'sadigan palmalar juda ko'p meva soladi. Mevalar pishgach, suvg'a tushadi, to'lg'inalar ularni dengizga olib ketadi. Shu tariqa ular boshqa qirg'oqlarga ham tarqalib, o'sha yerlarda ham unib chiqadi.

Gulchehra UBAYDULLAYEVA,
Sergeli tumanidagi 172-maktabning
9-«A» sinf o'quvchisi

TOPISHMOQLAR

Tunukani chertadi,
Kesaklarni kertadi.
Biroz «sho'xlik» qilgach u,
Yerga singib ketadi.

Qishda terlab ishlaydi,
Boshqa mahal qishlaydi.

Yungi – igna,
Burni – tugma,
Ko'zi – munchoq,
Bag'ri – yumshoq.

Fayzulla
ABDULLAYEV

Zoologiya darsida o'qituvchi so'radi:

– Olimjon, ayt-chi, suvda ham, quruqlikda ham birday yashay oladigan jonivorlar qanday ataladi?

– Matroslar, – javob berdi o'quvchi.



XANDILAR

Ona o'g'liga dedi:
– Televizor ko'rib o'tirguncha, otangga uy vazifa laringni tayyorlashga qara shib yubormaysanmi?

ZUBAYDA tayyorladi

8



Bosh muharrir
Feruza JALILOVA

Muassislari:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshler ijtimoy harakati Markaziy
Kengash.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:

Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rmosari),
Feruza ADIROVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Quroqboy ERGASHEV,
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi
muharrir
Sayyora
QODIROVA
Rassom
Feruz
MATYOQUBOV

Dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV
Musahhih
Nargiza
ABDULLAYEVA

Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel/Faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etidi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.

Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.

ISSN 2010-6092
Adadi - 85 074
Buyurtma N: J 7111